

XIRURGIK VA GINIKOLOGIK BEMORLAR SIMULTAN  
OPERATSIYALARDA ANESTEZIOLOGIK HIMOYANI  
TAKOMILLASHTIRISH

*Qurbanov Navruzbek Zayniddin o'g'li*

*Samarqand davlat tibbiyat universiteti anesteziologiya, reanimatsiya  
va shoshilinch tibbiyat kafedrasasi. Samarqand, O'zbekiston.*

**Annotatsiya:** Xirurgik va ginikologik bemorlar simultan operatsiyalarni bajarishda ishonchli og'riqsizlantirish usullari ko'rib chiqildi. Jarrohlik stressining og'irligi, anestesiya usullaridan foydalanish, sedatsiya komponenti, o'pkaning sun'iy ventilyatsiyasi, jarrohlikda anestesiya, anestetik va opioidlarning kognitiv va psixomotor funksiyalarga ta'siri; epidural anesteziyani umumiy anestesiya bilan birgalikda qo'llashda ta'minlangan ijobiy ta'siri baholanadi.

**Kalit so'zlar:** jarrohlik, asoratlar, sedatsiya komponenti, anestetiklar, narkoz, epidural analgeziya, spinal anestesiya, vena ichi umumiy anaesteziyasi

**Ishning dolzarbliji:** So'nggi tadqiqotlar bizga patogenetik jihatdan bir-biriga bog'liq va tasodifiy bo'lgan turli xil organlar va tizimlarning kasallikkleri kombinatsiyasida yangi qonuniyatlarni topishga imkon berdi. 2021- yilda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti statistik ma'lumotlarni e'lon qildi, unga ko'ra jarrohlik bilan davolanadigan bemorlarning 25-30 foizida bir yoki bir nechta kasallik mavjud. Shu bilan birga, ushbu toifadagi bemorlarga zaruriy tibbiy yordam ko'rsatish va maksimal tibbiy, ijtimoiy va iqtisodiy samaraga erishish uchun haqiqiy imkoniyatlarga qaramay, hozirga qadar bunday bemorlarning atigi 1,5-6 foizi bir vaqtning o'zida jarrohlik aralashuvlardan o'tmoqda. Simultan operatsiyalarning sonini juda kamligi turli sabablar bilan izohlanadi: operatsiyadan oldingi davrda bemorlarning to'liq tekshirilmaganligi, qorin bo'shlig'i va kichik chanoq bo'shlig'i a'zolarining operatsiya davomida intraoperativ tekshiruvi, bir vaqtning o'zida operatsiyalarni o'tkazish imkoniyatlaridan foydalanganda operatsion xavf darajasini tasdiqlash va jarrohlikning noto'g'ri natijasi, jarrohlik aralashuvining hajmini kengaytirish uchun jarrox va anestezistlarning psixologik tayyor emasligi bilan izoxlanadi.

**Ishning maqsadi:** Turli xil xirurgik va ginikologik simultan operatsiyalarida anezteziologik yondoshuv samaradorligini baxolash.

**Material va tekshirish usullari:** Tekshirish uchun qorin bo'shlig'ida simultan operatsiya o'tkazgan xirurgik bemorlardan 80 nafari o'rganildi. Ularning yoshlari 35 dan 72 yoshgacha (o'rtacha 54.6 +- 6.6 ): erkaklar - 35- 43,75%, ayollar - 45- 56,25% ni tashkil qildi. Bemorlar simultan operatsiya xarakteriga ko'ra quyidagicha taqsimlandi: gernigastrektomiya va xolestistektomiya – 29 bemor, jigardan

exinikokkektomi va xolestistektomiya -16, gemiolaparotomiya va xolestistektomiya – 18 bemor, germiolaparotomiya va gisterektomiya 17 nafardan iborat. Asosiy guruhdagi (46 bemor) bemorlar operatsiyalarida ko'p komponentli umumiy va epidural anesteziya (EA) bilan kombinatsiya qilinib o'tkazildi. Epidural bo'shliq punktsiyasi va kateterizatsiyasi umumiy qoidalar asosida standart premedikatsiyadan 30-40 daqiqadan keyin bajarildi. Punkstiya sohasi bajariladigan operatsiya bo'ladigan a'zolarni hisobga olgan holda tanlandi. Mahalliy izobarik anestetik longokain (Ukraina) 0,5% -1,5 mg/kg hisobidan qo'llanildi. Nazorat guruhidagi 34 bemorga shu xildagi operatsiyalarda total vena ichi anesteziyasi O'SV fonida bajarildi. Umumiy anestetik sifatida ketamin 5-6 mg/kg/soat, tiopentalnatriy 3-5 mg/kg/soat, NLA preparatlari va miorelaksant arduan 0,04-0,06 mg/kg/soat dozalarda sarflandi. Operatsiya va undan keyingi dastlabki davrda umum klinik va bioximik tahlillar bilan birgalikda EKG (Geolik EKZT – 12 - 01, Yaponiya ). EXO - KG (ACCUVIX QX, Medison. Yaponiya). AQB (sistolik, diastolik, o'rtacha), YUUS, spirometriya (Spiro Com Standard, XAI - MEDIKA, Xarkov, Ukraina ) pulsoksimetriya (SpO<sub>2</sub>) (MPR6 – 03 - «Triton» Rossiya ) tekshirildi. Anesteziya effekti gemodinamik ko'rsatgichlar, glikemiya miqdori. Operatsiyadan keyingi davrda esa vizual – analog shkala (VASH) yordamida baholandi.

### 1-jadval

Guruhlardagi tekshirilgan ko'rsatgichlarni tadqiqit bosqichlarida dinamikasi

Tekshirilayotgan ko'rsatkichlar	Guruhlar	Tadqiqot bosqichlari				
		1-	2-	3-	4-	5-
sisAQB, mm.sim.ust	Asosiy guruh N=46	134,8± 12,6	138,4± 11,5	126,2± 9,7	121,6± 8,2	122,1± 9,3
	Nazorat guruh N=34	137,3± 15,2	141,6± 16,1	138,1± 17,3	148,1± 12,8	137,5± 11,9
diasAQB, mm.sim.ust.	Asosiy guruh N=46	82,2± 10,2	82,8± 8,1	76,8± 4,8	75,3± 5,8	76,3± 6,1
	Nazorat guruh N=34	89,6± 11,2	82,4± 12,9	91,5± 11,3	89,1± 10,1	82,4± 9,6
YuQS, daqiqada	Asosiy guruh N=46	76,1± 5,7	98,5± 4,9*	79,3±8,2	77,8± 5,6	76,3± 5,1
	Nazorat guruh N=34	72,9± 8,1	98,8± 10,1*	97,9± 11,4*	91,6± 8,7*	89,7± 7,2
Diurez, o'rtacha ml/soat	Asosiy guruh N=46	47,2 ± 2,7	58,4 ± 2,9	59,5 ± 2,8	58,9 ± 2,9	
	Nazorat guruh N=34	48,2 ± 3,2	48,1 ± 3,5	49,3 ± 3,2	48,6 ± 3,3	
SpO <sub>2</sub> , %	Asosiy guruh N=46	—	97,8±1,7	97,6±2,1	97,9±1,7	98,1± 1,4
	Nazorat guruh N=34	—	96±3,8	95,6±3,4	96,8±2,1	96,6± 2,3

Izoh: p<0,05 tadqiqot bosqichlarida ishonchli farqi.

Bemorlar operatsiya va anesteziya xavfi ASA bo'yicha II-III darajada baholandi. Tekshirilgan guruh bemorlariga EA bajarilgandan keyin AQB 15-20% ga pasayishi, YuUS 5% ga oshishi kuzatildi. SpO<sub>2</sub> 96-98 % oralig 'ida qoldi. Anesteziologik qo'llanmaning kompeti sifatida EA qo'llanilishi tufayli asosiy guruhda fentanil sarfi 8-10 marta kamaydi.

O'rtacha AQB mazkur gunuhda operatsiyaning barcha etaplarida stabil saqlandi. Gemodinamikaning stabil holatida, adekvat mustaqil nafas tiklangandan keyin nazorat guruhiga nisbatan ertaroq ekstubastiya imkoniyati yaratildi. Asosiy guruhdagi bemorlarga operatsiyadan keyingi analgeziya sifatida epidural kateter orgali longokain eritmasi 0,5% - 5 ml ( 25 mg ) dan har 6 – 8 soatda yuborildi. Nazorat guruhidagi 8 holatda opperatsiyadan keyingi davrda diskomfort; yaqqol og'riq sindromi, qorin damlashi, ko'ngil aynishi kuzatilib qo'shimcha og'riqsizlantirishni talab qildi. VASH buyicha analgeziya darajasi asosiy guruhda 0-1 ball, nazorat guruhda esa 3-4 ballni tashkil qildi.

**Xulosa:** Qorin bo'shlig'i va kichik chanoq bo'shlig'i a'zolari travmatik simultan operatsiyalarini bajarishda kombinatsiyali anesteziya ( UA+EA ) intraoperatsion davrning silliq kechishini taminlaydi, sezilarli darajada narkotik analgetik va umumiylanestetiklar sarfini kamaytirdi va bemorni ertaroq uyg'onishiga olib keldi. Operatsiyadan keyingi epidural analgeziya bemorni ertaroq aktivlashtirib, nafas va ichaklar harakatini aktivlashtirdi, reanimastiya va intensiv terapiya bo'limida bo'lish kunlarini kamaytirdi, demak iqtisodiy samaradorligi o'rinni topdi.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Курбонов, Н. З., Пардаев, Ш. К., & Матлубов, М. М. (2022). ОПТИМИЗАЦИЯ АНЕСТЕЗИОЛОГИЧЕСКОГО ПОСОБИЯ ПРИ СИМУЛЬТАННЫХ ОПЕРАЦИЯХ НА ОРГАНАХ БРЮШНОЙ ПОЛОСТИ. Uzbek Scholar Journal, 10, 52-56.
2. Zayniddinovich, Q. N., & Qo'yiliyevich, P. S. (2022). QORIN BO'SHLIG'I SIMULTAN OPERATSIYALARDA ANESTEZOLOGIK YONDOSHUV SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH. Journal of Integrated Education and Research, 1(5), 116-121.
3. Kh, G. N., Kurbonov, N., Kh, K. E., & Matlubov, M. M. (2022). Optimization of Anesthesiological Approach for Recurrent Ventral Hernia in Obesity Patients. Texas Journal of Medical Science, 8, 10-14.
4. Kurbonov, N. Z., Raxmatov, F. I., & Giyosov, N. (2021). Optimization Of Anesthesia During Simultaneous Operations. Texas Journal of Medical Science, 3, 52-54.
5. Zayniddinovich, K. N., Qo'yiliyevich, P. S., & Muratovich, M. M. (2022). OPTIMIZATION OF ANESTHESIOLOGICAL APPROACH IN RECURRENT ABDOMINAL HERNIA SURGERY IN PATIENTS WITH THIRD-DEGREE OBESITY. Journal of new century innovations, 18(1), 188-194.
6. Курбонов, Н. З. (2022). ОПТИМИЗАЦИЯ АНЕСТЕЗИОЛОГИЧЕСКОГО ДОСТУПА ПРИ ХИРУРГИИ РЕЦИДИВА ВЕНТРАЛЬНОЙ ГРЫЖИ У ПАЦИЕНТОВ С ОЖИРЕНИЕМ И АРТЕРИАЛЬНОЙ ГИПERTENZIEY. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(24), 431-439.
7. Zayniddinovich, K. N., & Kuilievich, P. S. (2023). STABILIZATION OF ANESTHETIC SUPPORT DURING SIMULTANEOUS ABDOMINAL AND PELVIC

- OPERATIONS. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(6), 122-124.
- 8. Zayniddinovich, K. N., & Kuilievich, P. S. (2023). Improving the efficiency of anesthetic access during simultaneous abdominal and pelvic surgeries in patients with concomitant arterial hypertension. IQRO, 3(1), 12-15.
  - 9. Zayniddinovich, K. N., & Kuilievich, P. S. (2023). OPTIMIZATION OF ANESTHETIC SUPPORT DURING SIMULTANEOUS OPERATIONS ON THE ABDOMINAL AND PELVIC ORGANS. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(1), 331-334.
  - 10. Sharipov, I. L., Xolbekov, B. K., & Kurbonov, N. Z. (2023). BOLALAR OFTALMOLOJARROHLIGIDA ANESTEZIYANI TAKOMILLASHTIRISH. World scientific research journal, 20(1), 107-112.
  - 11. Kurbanov, N. Z., & Sharipov, I. L. (2023). IMPROVEMENT OF ANESTHETIC PROTECTION IN SIMULTANEOUS OPERATIONS ON ABDOMINAL AND PELVIC ORGANS. World scientific research journal, 20(1), 113-116.
  - 12. Zayniddinovich, K. N., & Latibovich, S. I. (2024). IMPROVING ANESTHETIC PROTECTION AND BLOOD PRESSURE CONTROL IN SIMULTANEOUS ABDOMINAL AND PELVIC OPERATIONS IN OBESE PATIENTS. JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCES, 7(1), 97-101.
  - 13. Sharipov, I. L., Qurbanov, N. Z., & Rakhmonov, S. (2023). IMPROVING AIRWAY PATENCY DURING OPERATIONS IN THE MAXILLOFACIAL REGION IN CHILDREN. Academia Repository, 4(12), 140-145.
  - 14. Zayniddinovich, K. N., Qo'yiliyevich, P. S., & Latibovich, S. I. (2023). INCREASING ANESTHESIOLOGICAL PROTECTION DURING SIMULTANEOUS OPERATIONS ON THE ABDOMINAL AND PELVIC REGION IN PATIENTS WITH OBESITY. Academia Repository, 4(11), 321-325.
  - 15. Zayniddin o'g'li, Q. N. (2024). HAMROH SEMIZLIGI BOR BEMORLAR QORIN BO'SHLIG'I A'ZOLARI SIMULTAN OPERATSIYALARDA ANESTEZOLOGIK HIMOYANI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI. Лучшие интеллектуальные исследования, 20(5), 3-6.
  - 16. Zayniddinovich, Q. N. (2024). COMBINED ANESTHESIA IN SIMULTANEOUS OPERATIONS OF GALLBLADDER AND SMALL INTESTINE. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 46(2), 26-29.
  - 17. Komil o'g'li, D. M., & Zayniddinovich, Q. N. (2024). PECULIARITIES ANESTHESIA IN OPERATIONAL GYNECOLOGY U PATIENT WITH EXTRAGENITAL PATHOLOGY. Journal of new century innovations, 54(1), 7-15.
  - 18. Zayniddinovich, K. N., & Latibovich, S. I. (2024). ANESTHESIA OPTIMIZATION IN PEDIATRIC OPHTHALMIC SURGERY. IMRAS, 7(2), 44-48.